O’zbekisron Respublikasi
Oily va o’rta maxsus ta’lim vazirligi
Namangan muhandislik –iqtisodiyot instituti

**M.Inamov**

340900 - “Buxgalteriya hisobi va audit”
ta’lim yo’nalishi talabalari uchun

# YO'NALISHGA KIRISH

FANIDAN SEMINAR MASHG’ULOTLARI
O’TISH USHUN USLUBIY KO’RSATMA

Namangan - 2006

Uslubiy ko’rsatma 340900 – “Buxgalteriya hisobi va audit” ta’lim yo’nalishida ta’lim olayotgan 1-kurs bakalavrlariga mo’ljallagan.

Uslubiy ko’rsatma M..Inamov tomonidan tayyorlangan.

Tuzuvchi: M.Inamov

Taqrizchi: dots. B.Sharipov

Ushbu uslubiy ko’rsatma NamMII “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasining «____»_________ 2006 yildagi umumiy yig’ilishida ko’rib chiqilgan va institute uslubiy kengashining «____»_________ 2006 yil № ____ - sonli qarori bilan chop etishga tavsiya etilgan.

## 1-mavzu: O’zbekiston Respublikasida Oliy ta`lim

**Reja:**

1. O’zbekiston respublikasi mustaqilligi va uning oliy ta``lim tizimiga ijobiy ta`siri.
2. Oliy Ta`limning moxiyati, uning asosiy xususiyatlari.
3. Xalq xo’jaligi uchun mutaxassislar tayyorlash.

### O’zbekiston Respublikasida Oliy ta`lim

O’zbekiston Respublikasi mustaqilligi va uning oliy ta`lim tizimiga ijobiy ta`siri. O’zbekiston Respublikasining iktisodiy va madaniy rivojlanishi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ochik demokratik fuqarolik jamiyati qurilishidagi yetakchilik roli. O’zbekiston Respublikasining moddiy-texnikaviy bazasini yaratish zarurati va oliy ta`lim oldidagi vazifalar.

Oliy ta`limning moxiyati, asosiy xususiyatlari va uning O’zbekistonda rivojlanish bosqichlari. Xozirgi sharoitda xalk, xo’jaligi tarmoklari uchun kadrlar tayerlashda oliy ta`limning tutgan o’rni va roli.

Xalq xujaligi uchun mutaxassislar tayyorlash tizimida iktisodiy ta`lim. Prezidentimiz iktisodiy siyosatining asosiy punalishlari, iktisodiyot soxalari uchun kadrlar tayyorlash borasidagi sa`y-xarakatlari.

## 2-mavzu: Namangan Muxandislik Iqtisodiyot Instituti.

**Reja:**

1. NamMII ni tashkil etilishi.
2. Institutning rivojlanish bosqichlari.
3. Institutdagi o’quv-metodik yo’nalishlar.

O’zbekiston Respublikasida iktisodiy ta`limning rivojlanishi va institutining tashkil etilishi. Institut rivojlanishining asosiy bosqichlari, talabalar tarkibining o’sishi, moddiy-texnikaviy bazasining mustaxkamlanishi. Ilmiy-pedagogik kadrlar, ularning malakasini oshirish.

Institutdagi o’kuv-metodik, ilmiy-tadkikot, ta`lim-tarbiyaviy ishlarning asosiy yo’nalishlari. Institutning tarkibiy tuzilishi. Rektorat, fakul tetlar va kafedralar, ularning faoliyati. Institut ilmiy kengashi, fakul tetlar kengashi va ular faoliyatining asosiy yo’nalishlari. Laboratoriyalar va institutning boshqa bo’linmalari. Kasaba uyushmasi va boshqa jamoat tashkilotlarining tarkibiy tuzilishi, ularning asosiy vazifalari.

**3-mavzu: Oliy ta`limda o'quv jarayonini tashkil etishning ilmiy asoslari.**

**Reja:**

1. Oliy ta`limning xususiyatlari.
2. Oliy iqtisodiy ta`lim mazmuni.
3. Iqtisodiy fanlar tizimi.
4. O'quv dasturlarini talabalar tomonidan o'zlashtirilishi.
5. I-kurs talabalari bilan olib boriladigan o'quv, ilmiy va tarbiyaviy ishlarni asosiy yo'nalishlari.

Oliy ta`limning xususiyatlari va uning umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-xunar ta`limi muassasalaridagi o'quv jarayonidan farqi. Oliy iqtisodiy ta`lim mazmuni. Institutda kadrlar tayyorlash bo'yicha ixtisosliklar. Ixtisosliklar bo'yicha institutning O'QUV rejalari va ularni takomillashtirish. Nazariy va amaliy ga`lim uzviyligi.

Iqtisodiet soxasi kadrlarini tayerlashda ijtimoiy fanlarning roli. Iktisodiy fanlar tizimi, iktisodchilarni matematik tayyorlash. Umumilmiy fanlar va ularning o'quv rejasida tutgan o'rni.

O'quv dasturining talabalar tomonidan uzlashtirilishi. Kalendar-texnik rejalar va o'quv mashgulotlari jadvali.

Talabalarning o'quv va mustaqil ta`lim jarayonida texnik vositalardan foydalanishi. Dasturiy ukitish. O'quv jarayonini ilmiy tashkil etishda EXMlardan foydalanish.

Birinchi kurs talabalari bilan olib boriladigan o'quv, ilmiy va tarbiyaviy ishlarning asosiy yunalishlari.

**4-mavzu: Oliy ta`limda o'qitishning asosiy shakllari.**

**Reja:**

1. O'quv mashg'ulotlarini asosiy turlari.
2. Seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari.
3. Kurs ishlari.
4. Imtixonlar, sinov imtixonlari, reyting usuli.

O'quv mashgulotlarining asosiy turlari. Ma`ruza va uning O'quv jardyonidagi yetakchi roli. Ma`ruzani tinglash va yozib olish. Ma`ruza va dastlabki adabiyot manbalari. Ma`ruza va darslik. Talabalarning mustakil ishlari. Seminar, amaliy mashgulotlar, imtixon.

• Seminar, amaliy va laboratoriya mashgulotlari, ularning moxiyati va axamiyati. Seminar va boshqa mashgulotlarni o'tkazish shakllari. Talabalarning

seminar va amaliy mashgulotlarga tayyorlanish usullari. Seminar darslarida faol katnashish.
Kurs ishlari va loyixalar, ularni yezish usuli. Maslaxatlar, ularning shakllari va ta`lim jarayonidagi roli. Talabalarning ishlab chiqarish amaliyoti, iktisodiy bilim yurtlarida uni tashkil etish xususiyatlari.
Imtixonlar, sinov, imtixonlari. Reyting usuli va uning axmiyati. Talabalarning bilimiga quyadigan asosiy talablar. Talabalarni yakuniy baxolash va reyting nazoratiga tayyorlash usullari.

## 5-mavzu: Mustaqil ish va talabalar mexnatini ilmiy tashkil etish.

**Reja:**

1. Mustaqil ish-yuqori malakali kadrlar tayyorlashning asosiy usuli.
2. Talabaning vaqt byudjeti va ish kuni.
3. Talabalarni aqliy faoliyatini tashkil etish usullari.
4. Talabalar aqliy mexnati gigienasi va madaniyati.

Mustaqil ish - yuqori malakali kadrlar tayerlashning asosiy tufli, xozirgi sharoitda talabalarning mustaqil ishchi rolini oshirish. Mustatqil ishning moxiyati va shakllari. O’quv jarayoni va mustaqil ish Mustakil ishni rejalashtirish va me`yorlashtirish. Uy vazifalarining uzluksizligini, uzviyligini va murakkabligini inobatga olish - mustaqil ishni ilmiy tashkil etishning asosiy shartlaridir.

Talabaning vatst byudjeti va iga, kupi, ulardan samarali foyydalanish. AKLIY faoliyatning sermaxsul rejasi.

Talabaning mustaqil ishi ustidan nazoratni tashkil etish, uning axamiyati va shakllari. Joriy baxolash xususiyatlari. talabalar attestatsiyasi, uni tashkil etish va o’tkazish.

Talabalarning akliy faoliyatini tashkil etish usullari va vositalari. Prezidentimiz I. A. Karimov asarlarini, iktisodiy adabiyotlarni o’rganish xususiyatlari. Kitoblar bilan ishlash. Konspektlash shakllari, seminarlarga, amaliy mashgulotlarga, siniv va imtixonlarga tayerlanishda ulardan foydalanish.

Talabalar aqliy mexnati gigienasi va madaniyati. Ish faoliyatini ishirish omillari. Bilimlarni o’zlashtirishda diqqat, xotira, fikrlash va irodaviy fazilatlarni rivojlantirishning axamiyati

Samarali dam olishni tashkil etish tamoyillari. Talabaning kun tartibida jismoniy mashgulotlarning o’rni.

## 6-mavzu: Talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish.

**Reja:**

1. Yoshlar va fan.
2. Institut va fakul tetlarda ilmiy-tadqiqot ishlarini axamiyati.
3. Kurs ishlari.

4. Malakaviy ishlar.

Yoshlar na fan. Ilmiy-tadqiqot ishlar (ITI) - yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning asosiy omili.

Iqtisodietni erkinlashtirish sharoitida ilmiy-tadqiqot : ishlarining axamiyatini oshiruvchi omillar. Ilmiy-tadqiqot ishlar tugrisida Nizom.

Institut va fakul tetlarda ilmiy-tadqiqot ishlar tizimi va tuzilishi. Ilmiy tugaraklar. Talabalar ilmiy taxlil byurosi. Kafedra, muammoli laboratoriya, xujalik shartnomaviy ilmiy-tadqiqot ishlarida talabalar ishtiroki. Xalkaro, Respublika va institut miqyosidagi konferentsiyalarda talabalar ishtiroki. Iktisodiy fanlar bo’yicha ko’rik-tanlovlar. Malakaviy ishlar konkursi. Viktorinalar va olimpiadalar. Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari va o’quv jarayoni. O’quv-tadqiqot ishlarining shakllari. Kurs ishlari, ishlab chiqarish amaliyotini o’tash jarayonida va bitiruv malakaviy ishlarini yozishda ilmiy-tadqiqt faoliyati.

Birinchi kurs talabalari orasida olib boriladigan ilmiy-tadqiqot, o’quv-tadqiqot ishlarining asosiy xususiyatlari vatashkiliy shakllari.

## 7-mavzu: Talabalarni g’oyaviy tarbiyalash.
**Reja:**

1. G’oyaviy tarbiyaning asosiy vazifalari.
2. O’zbekiston Respublikasining ijtimoiy portreti.
3. Rektorat, fakul tet va jamoat tashkilotlarining talabalarni tayyorlashdagi roli.
4. Mafkuraviy tarbiya usullari.
5. Talabaning huquq va burchlari.
6. Talabalarni taqdirlash turlari.
7. Institut mulki va uni butligi.
8. Turmush gigienasi.

O’zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini erkinlashtirish sharoitida talabalarni goyaviy tarbiyalashning asosiy vazifalari. O’zbekiston talabalari - ulug ajdodlarimiz vorislari, Vatanimiz ximoyachilari va buyuk davlat quruvchilardir.

O’zbekiston Respublikasining ijtimoiy portreti.

Rektorat, fakul tet va jamoat tashkilotlari xamda ijtimoiy kafedralarning talabalarni goyaviy tarbiyalashdagi roli. Milliy mafkurani egallash-ilmiy dunyoqarash shakllanishining asosidir. O’zbekiston Respublikasi talabalarining baynalmilal aloqalari, xalk va vatan oldidagi o’z fuqarolik mas`uliyatini tubdan sezishi. Mexnat va jismoniy tarbiya.

Mafkuraviy tarbiya metodlari. vositalari va tashkiliy shakllari.

Talabalik jamoasi moxiyati va asosiy belgilari. Jamoaning shakllanishi va talabaning yakka kiyofasi. Gurux murabbiyi.

Talabaning xuquq va burchlari. Turmush va dam olish. O’quv jarayonini takomillashtirishda talabaning roli. Talabaning xuquqiy va me`yoriy koidalari.

Institut va fakul tetda ichki tartib- koidalar, Talabalarni taqdirlash va jazolash turlari.

Institut mulki va uning butligi. Reyting daftarchasi va talabalik guvoxnomasi. Prezidentimiz va xukumatimizning talabalar turmush sharoitlarini tubdan yxshshgash borasidagi chora-tadbirlari.

Turmush gigienasi. Talabalar uyidagi ichki tartib-koidalar. Ovqatlanish. Aktiv va passiv dam olish. Tibbiy xizmat kursatish. Sport-soglomlashtirish tadbirlari. Madaniy sayl va turizm. Badiiy xavaskorlik.

## 8-mavzu: Kasbiy ta`lim muammolari.

**Reja:**

1. Xisobchi-iqtisodchi kasbini moxiyati.
2. O'zbekiston Respublikasi iqtisodchisining burchi.

Iqtisodchi kasbining moxiyati, bozor iqtisodiyoti sharoitida uning o'rni, xalq xo'jaligini rivojlanishidagi axamiyati. O'zbekiston Respublikasida iqtisodchi faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Teran bilim, mafkuravush ishonch-professional faoliyat samaradorligining asosiy shartidir.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodchisining professional burchi. Iqtisodchining o'z ishiga sofdil munosabatda bo'lish tamoyillari. Iqtisodchi faoliyatining mas`uliyati va ishlab chiqarish amaliyoti uslubi. Iqtisodchining ma`naviy qiyofasi va obro'si. Ishbilarmonlik - iqtisodchining asosiy sifati.

Jamoaning ishlab chiqarish faolligini oshirishda iqtisodchining roli.

Ixtisosga qiziqishni shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. Mazkur ixtisos bo'yicha o'qitiladigan fanlar tizimi, ularning xajmi, fanning mazmuni. Ayrim fanlarni o'rganish xususiyatlari.

## 9-mavzu: Axborot asoslari. Kutubxona ishi va bibliografiya.

**Reja:**

1. Kutubxona ishi.
2. Kitob va ma`ruza matnlaridan foydalanish.

Ushbu mavzu O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta`lim vazirligi tomonidan tasdiqdangan maxsus dastur asosida o'qitiladi. Mashgulotlar akademik gurux.larda institut fundamental kutubxonasi xodimlari tomonidan o'tkaziladi